

KINO OLAMINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISH PATENSIALLIGI VA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15666328>

Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqoladi turizmning asosiy qismlaridan biri bo'lgan kino turizm haqida va uning hozirdagi hamda kelajakdagi daromadlilik va talabchanlik potensialini ko'rastib berishga harakat qilinadi. Filmlarning ayniqsa audio-vizual ko'rinishi tomoshabinda katta tassurot qoldirishi tufayli ko'pgina sayohatchilar filmlarning suratga olingan joylariga qiziqish bildirishmoqdalar. Shu kabi ma'lumotlar maqolada yoritiladi.

Kalit so'z

film turizmi, marketing, audio-vizual sektor, turistik manzillar, TV.

Abstract

This article is about film tourism, which is one of the main parts of tourism, and tries to show its current and future profitability and demand potential. Due to the fact that the audio-visual appearance of the films leaves a great impression on the viewer, many travelers are interested in the places where the films were shot. Such information will be covered in the article.

Key words: film tourism, marketing, audio-visual sector, tourism addresses, TV.

Абстрактный

Эта статья посвящена кинотуризму, который является одной из основных частей туризма, и пытается показать его текущую и будущую прибыльность и потенциал спроса. Благодаря тому, что аудиовизуальное оформление фильмов оставляет большое впечатление у зрителя, многих путешественников интересуют места, где снимались фильмы. Такая информация будет рассмотрена в статье.

Ключевые слово: кинотуризм, маркетинг, аудиовизуальный сектор, туризм адреса, ТВ.

Shu yaqin yillarda o'tkazilgan bir tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki sayohat manzilini tanlovchi sayyohlar ichida 13 foiz sayyohlar manzilni film ko'rganlaridan

keyin, shu filmga suratga olingan manzilga qiziqib tanlashgan. Dunyo bo'ylab 80 milliondan ortiq sayyoh boradigan manzilini 2017 yilda filmlardan motivatsiya olgan holda tanlashgan. Bundan kelib chiqadiki turistlarni biror bir hududga yo'naltirish kino va filmlar orqali ham bo'lishi mumkin ekan. Oxirgi 20 yillikda filmlar orqali ruxlanib turistik manzillarga borish holatlari juda ham yuqori darajada o'sdi. Dunyo bo'ylab kino filmlarda suratga olinadigan manzillarning mashhurligini hamda tashrif buyuruvchilar orasida manzilga nisbatan bo'lgan bilimlarini oshirish maqsadida marketing kompaniyalari yoki mahalliy turizm qo'mitalari tomonidan tashabbus ko'rsatilib filmlar suratga olinmoqda. Negaki yirik kompaniyalar davlat tashkilotlari va vazirliklar millionlab pullarni filmlar suratga olishga sarflab minglab hatto millionlab kino ishqibozlarni o'zlariga jalb qilmoqda.

Hususan gap kino turizm haqida ketar ekan kino olamining turizmga nechog'li foyda keltirishi va u orqali kattagina turistlar oqimini hududlarga yo'llash mumkinligini va aynan kino turizimini Amerika Qo'shma Shtatlarda amalda qo'llagan Otabek Mahkamovni aytib o'tsak. Otabek Mahkamov o'z intervyularidan birida aynan kino turizimi haqida o'zining qarashlarini aytib o'tadi. Otabek Mahkamov aytadiki "Amerika Qo'shma Shtatlarda gid bo'lib ishlashga qaror qildim. O'yladimki men uchun an'anaviy turizm turlariga biroz yangilik kiritishim kerak va men aynan kino turizmi uchun o'z xizmatlarimni ko'rsata boshladim. Ishonasizmi menga novbatga turganlar soni juda ham ortib ketgandi. O'ylalmanki aynan bu holatni yurtimiz O'zbekistonda ham amalga oshirishimiz kerak va chet el prodyuserlarini ham mamlakatga taklif etgan holda yurtimizning ajoyib joylarini ko'rsatish darkor". Hammaga ma'lumki Otabek Mahkamov shunchaki gid emas balki ayni vaqtda blogger, jurnalist, huquqshunos hamdir.

Kino turizimiga ko'gina filmlar suratga olingan joylarni misol tariqasida ko'satish mumkin. Misol uchun: "Brilliant qo'l" filimidagi bosh qaxromonning qo'li gips qilingan joy, Yangi Zelandiyadagi "Uzuklar hukmdori va Xobbit" uchun tayyorlanga maxsus kulbalar va hattoki "King kong" filmi ham alohida bir bino qurulganda unga odamlar oqimini oshirish uchun suratga olingandir.

Tadqiqot natijalaridan xulosa qilib shuni aytish mumkinki filmlarning turizmga ta'siri tobora ortib bormoqda va ayniqsa yoshlar filmlargagi manzillarni borib ko'rishni istashlari ayon bo'ldi. Har qanday mamlakat o'zining kinofilmlari orqali xorijiy sayyohlarni o'zlariga jalb qilishlari mumkindir. Kino turizimni allaqachonlar xorijiy mamlakatlarda o'z ta'sirini ko'rsatgandir va ko'rsatmoqda misol uchun Nyu-York shahrodagi Rokfeller plaza deb atalgan joyiga har yili bir million sayohatchilarning kelishini bunga yorqin misol qilib ko'rsatish mumkindir.

REFERENCES:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/King_Kong
2. <https://odigeoconnect.com/learn/trends-reports/top-10-film-induced-tourism-destinations/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/filmlarning-turizmga-tasiri-ozbekiston-misolida>